



NAVOIY VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI

**NAVOIY VILOYATIDA  
MAKTABGACHA TA'LIMNING  
ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI**  
*(2024- yil 1- yanvar holatiga)*



## NAVOIY VILOYATIDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI

**Maktabgacha ta'lim bo'yicha press-reviz** – bu sohadagi rivojlanishlanish tendentsiyalarini kuzatib borish uchun muhim vosita hisoblanadi. Ushbu press-revizda, birinchi navbatda, maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanishini tavsiflovchi va bu sohaga boshqacha nuqtai nazardan qarash imkonini beruvchi rasmiy statistik ma'lumotlar keltirilgan.

**Press-revizning asosiy maqsadi** maktabgacha ta'lim sohasidagi hozirgi holatni aks ettirish, taqdim etilayotgan maktabgacha ta'lim sifatiga, barqaror rivojlanishga erishish yo'lidagi natijalar sarhisobi, shuningdek, farzandlarimizning ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan samarali strategiyalarni ishlab chiqishga ko'maklashishdan iborat.

**Maktabgacha ta'lim** bola hayotidagi eng muhim bosqich bo'lib, u bolalarning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, shaxsning shakllanishiga, uning intellektual, ma'naviy- axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishiga, shuningdek, bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga ta'sir qiladi va ularning kelajagini belgilaydi. Garchi bu bolalar rivojlanishining turli sohalari bo'lsa-da, ular o'zaro bog'liqdir. Hozirgi vaqtda maktabgacha ta'lim, ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylandi va uning ahamiyati doimiy ravishda ortib bormoqda.


Press-revizda maktabgacha ta'lim tizimining turli jihatlarini tavsiflovchi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining (oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qo'shgan holda) asosiy ko'rsatkichlari, xususan, maktabgacha ta'lim tashkilotlari va ulardagi bolalar soni, ushbu sohada faoliyat yuritayotgan pedagoglar va tarbiyachilar soni, 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'rsatkichlari kabi ma'lumotlar keltirilgan.

**Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti** faqat davlat-xususiy sheriklikning oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini moddiy-texnik va metodik jihatdan ta'minlash shakli asosida tashkil etiladi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti shaklida maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida ta'lim xizmatlari yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladi.


Ushbu press-reviz O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining maktabgacha ta'lim tashkilotlari bo'yicha idoraviy ma'lumotlari integratsiyasi orqali olingan ma'lumotlar asosida tayyorlandi.

## Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni (yil oxiriga, birlik)




Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari, oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonini qo'shgan holda, 2023-yil oxiriga 1 385 tani tashkil etdi, bu esa 2019-yil oxiriga nisbatan 844 taga (ya'ni 2,6 barobarga) oshgan.

## Faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonining shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi (2024-yil 1-yanvar holatiga, birlik)




### Navoiy viloyatida maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi o'rinlar soni \* (yil oxiriga, ming birlik)




Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi o'rinlar soni ushbu sohadagi eng muhim ko'rsatkichlardan biri deb hisoblanib, barcha kichik yoshdagi bolalarga bolalar bog'chalariga borish va maktabga tayyorgarlik ko'rish imkoniyatini davlat va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan ta'minlanishini aks ettiradi.

\* 2023- yilgacha oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi o'rinlar soni to'g'risidagi ma'lumotlarsiz keltirilgan.

### Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi o'rinlar sonining hududlar kesimida taqsimlanishi (2024- yil 1- yanvar holatiga, ming birlik)




### Navoiy viloyatida maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi guruhlar soni \* (yil oxiriga, birlik)



Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi guruhlar bolalarni tarbiyalash va o'qitish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Ushbu guruhlar bolalarning yoshi va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi, bu esa ularning har tomonlama rivojlanishi uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratishga imkon beradi.

\* 2023- yilgacha oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi guruhlar soni to'g'risidagi ma'lumotlarsiz keltirilgan.


### Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi guruhlar sonining shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi (2024- yil 1- yanvar holatiga, birlik)





## Navoiy viloyatidagi oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni


(yil oxiriga, birlik)




Navoiy viloyatida oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 2023-yil oxiriga 1 077 tani tashkil etdi, bu esa 2019-yil oxiriga nisbatan 781 taga (ya'ni 3,6 barobarga) oshgan.

## Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonining shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi

(2024-yil 1-yanvar holatiga, birlik)




### Navoiy viloyatida maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar soni (yil oxiriga, ming kishi)




Navoiy viloyatida maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar soni 2023- yil oxiriga 70,0 ming nafarni tashkil etdi, bu esa 2019- yil oxiriga nisbatan 28,6 ming kishiga (ya'ni 69,1 % ga) oshgan.

### Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar sonining shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi (2024- yil 1- yanvar holatiga, ming kishi)



### Naavoii viloyatida maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalarning gender taqsimoti


(yil oxiriga, %)



2023- yil oxiriga maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar sonida o'g'il bolalarning ulushi 60,7 %, qizlarning ulushi esa 39,3 % tashkil etgan. 2019- yil bilan solishtirganda qizlarning soni 40,0 %, o'g'il bolalarning soni 95,5 % ga oshgan.


### Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar sonining shahar va tumanlar bo'yicha gender taqsimoti

(2024- yil 1-yanvar holatiga, %)






### Navoiy viloyatida 3-6 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi (yil oxiriga, %)




3-6 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi bo'yicha sezilarli o'sish kuzatilmoqda. Jumladan, 2019- yil oxiriga bolalarning 51,6 % maktabgacha ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lgan bo'lsa, 2023- yil oxiriga esa bu ko'rsatkich 80,6 % gacha yetdi. Ushbu ijobiy tendensiyani bolalarni erta bolalik davrida har tomonlama rivojlanishi uchun ta'lim strategiyalari va dasturlarini muvaffaqiyatli amalga oshirilishi natijasi sifatida baholash mumkin.


### 3-6 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrovining shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi (2024- yil 1- yanvar holatiga, %)



**Navoiy viloyatida 3-6 yoshdagi bolalarni jinsi bo'yicha maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi**  
(yil oxiriga, %)




**3-6 yoshdagi bolalarni jinsi bo'yicha maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishining shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi**  
(2024- yil 1-yanvar holatiga, %)



## Navoiy viloyati maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagog xodimlar soni (yil oxiriga, ming kishi)

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagog xodimlar soni maktabgacha ta'lim sifatini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Bolalar bog'chalari malakali mutaxassislar bilan ta'minlanishi bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish darajasiga, shuningdek, ta'lim dasturlarini samarali amalga oshirishga bevosita ta'sir qiladi



\* 2023- yilgacha oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagog xodimlar soni to'g'risidagi ma'lumotlarsiz keltirilgan.



## Statistik ko'rsatkichlarga izoh

**Maktabgacha ta'lim va tarbiya** – bolalarga ta'lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek, bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta'lim turi.

**Maktabgacha ta'lim tashkiloti** – maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida ta'lim va tarbiya xizmatlari ko'rsatuvchi davlat va nodavlat tashkiloti.

**Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti** – davlat tomonidan moliyalashtiriladigan va boshqariladigan hamda maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartiga muvofiq maktabgacha ta'lim va tarbiya xizmatlari ko'rsatuvchi tashkilot.

**Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti** – nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish sohasidagi faoliyatni amalga oshirishga doir litsenziya asosida maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida ta'lim va tarbiya xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxs.

**Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti** faqat davlat-xususiy sheriklikning oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini moddiy-texnik va metodik jihatdan ta'minlash shakli asosida tashkil etiladi. Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 50 nafargacha bolalarga maktabgacha ta'lim va tarbiya berilishiga yo'l qo'yiladi.

**Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar soni** – yil oxirida maktabgacha ta'lim tashkilotlari ro'yxatida turgan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar soni.

**Maktabgacha bo'lgan yosh** – bolalarning tug'ilgan paytidan yetti yoshgacha, to ularga umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida ta'lim berish boshlangan paytga qadar bo'lgan yoshi.

**Bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida joylar bilan ta'minlanganligi** – ushbu ko'rsatkich bolalar sonining maktabgacha ta'lim muassasalaridagi joylar soniga nisbati bilan aniqlanadi. Qiyosiy tahlilda bu yerda maktabgacha ta'lim tuzilmalaridagi har 100 ta joyga to'g'ri keladigan bolalar soni bo'yicha ma'lumotlar qo'llaniladi.

**3-6 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi** – ushbu ko'rsatkich maktabgacha ta'lim tashkilotlari ro'yxatida turgan 3-6 yoshdagi bolalar sonining mazkur yoshdagi aholi soniga (doimiy aholining joriy hisobi asosida olingan demografik statistik ma'lumotlarga ko'ra) nisbati bilan aniqlanadi.



**Press-relizni tayyorlash uchun mas'ul:  
Navoiy viloyati statistika boshqarmasi  
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi**



**Navoiy viloyati statistika  
boshqarmasi**



**Manzil: Navoiy sh.  
Amir Temur ko'chasi, 4- uy**



**Tel.: +99879 223-54-98**



**e-mail: [nv@navstat.uz](mailto:nv@navstat.uz)**



**[www.navstat.uz](http://www.navstat.uz)**



**[facebook.com/navstatistika](https://facebook.com/navstatistika)**

